



The Importance Of The Ideas Of Jadidism In The Formation Of The Education System Of Turkestan

Bahritdin Samievich Turdiyev

Nizami TDPU «Spiritual basis» and Legal Education», Associate Professor

Annotation: This article discusses processes related to the emergence of ideas of modernism in Turkestan in the late 19th - early 20th century, reform movements in the education system, as well as the historical significance of the modern educational movement in the analysis of cultural and educational life of the country.

Keywords: Turkestan land, contemporaries, intelligentsia of Turkestan, Tsarist Russia, invasion of Tsarist Russia in Central Asia, Central Asian khanates, colonial policy.

Turkiston Maorif Tizimining Yuksalishida Jadidchilik G'Oyalarining Ahamiyati

Baxritdin Samiyevich Turdiyev

*Nizomiy nomidagi TDPU "Ma'naviyat asoslai
va huquq ta'limi" kafedasi dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik g'oyalarining vujudga kelishi va maorif tizimidagi islo Hatchilik harakatlari hamda O'lkaning madaniy-ma'rifiy hayotida jadid ma'rifatparvari harakating tarixiy ahamiyati bilan bog'liq jarayonlar tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar: Tukiston o'liasi, jadidlar, Turkiston ziyolilari, chor Rossiyasi, chor Rossiyasining O'rta Osiyoga tajovuzi, O'rta Osiyo xonliklari, mustamlaka siyosati.



Значение Идей Джадидизма В Ставлении Системы Образования Туркестана

Бахрутдин Самеевич Турдиев

ТГПУ имени Низами

Доцент кафедры “Основа духовности
и правовое образование”

Аннотация: В данной статье анализируются процессы, связанные с зарождением идей джадидизма в Туркестане в конце XIX-начале XX века и реформаторские движения в системе образования, а также историческое значение джадидского просветительского движения в культурно-просветительской жизни страны.

Ключевые слова: Туркестанский край, джадиды, Туркестанская интеллигенция, царская Россия, вторжение царской России в Среднюю Азию, среднеазиатские ханства, колониальная политика..

Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi masalasida yaqin vaqtarga qadar tarixchi va adabiyotshunos olimlar o'rtasida yakdil fikr bo'lgan. Ular jadidchilikning XX asr boshlarida Rossiya, Eron, Turkiyada ro'y bergan inqilobiy harakatlar ta'sirida maydonga kelgani haqidagi fikrni bildirgandilar. Ammo keyingi yillarda jadidchilik harakati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davom etarkan, ayrim tadqiqotchilar tamonidan Turkistonda jadidchilik harakati XIX asr oxiridan boshlanganligi haqidagi fikrlar bildirilmoqda. Masalan, o'zbek xalqi tarixinining xorijiy tadqiqotchilaridan biri Boymirza Hayit Turkistonda jadidchilik harakati XIX asr oxiridan boshlanganligi haqidagi fikrini asoslash uchun Behbudiy, M. Qori, Fitrat, Cho'lpion kabi tom ma'nodagi jadidlar bilan birga Komil Xorazmiy, Muqumiylar, Furqat, Abay, Mulla Nafas, Zinhoriy singari ma'rifatparvar shoirlarning ham nomlarini tilga oladi.[1] So'nggi yillarda o'zbek olimlari orasida ham jadidchilik harakatining vujudga kelish vaqtini oldinga surish va jadidlar safini yuqoridagi singari kengaytirishga urinish tamoyili yo'q emas.

Agar jadidchilik harakatining qachon vujudga kelganligi bilan bog'liq munozara hamon davom etmoqda. Harakatning XIX asr oxirida yuzaga kelganligini e'tirof etuvchi maqolalardan birining muallifi N.Karimov "Jadidchilik: islohat,



yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash ” nomli ilmiy to’plamda shunday fikr bildiradi: “ Jadidlar XIX asr oxirida emas, balki XX asr boshlarida maydonga chiqdilar. Leking ularning tarix sahnasiqa chiqishlarida ikki omil – tarixiy – ijtimoiy sharoit va davrning yangi g’oyalarini olg’a surgan gazetalari bilan birga, uchinchi omil – Muqumiy va Furqatlar boshlab bergan o’zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti ham muhim rol o’ynadi. Ammo bu so’z ularning ham jadid bo’lganligini mutl-qo anglatmaydi”.

“Jadid” atamasining o’zi atama sifatida aynan XIX asr oxirida ilk bor Turkiston ziyolilar hayotiga kirib keldi. “ Jadid ” atamasi (“jadid” – “yangi” demakdir) Turkistonga B. Qosimov fikriga ko’ra, 1884-yil birinchi bor iste’molga kiritilgan va “ Tarjumon ” gazetasi orqali Sharq-u G’arbning juda ko’p o’lkalarida yoyila boshlagan bo’lsa-da, bizga 90-yillarda kirib keldi.[2] “Jadid” atamasi va jadidchilik harakti esa “jadidlar otasi” deya nom olgan Ismoil Gaspirali nomi bilan bog’liqdir.

I. Gaspirali haqida uning “Hayot va mamot masalasi” asari orqali ko’proq ma’lumot olishimiz mumkin. Shu asardagi keltirilgan ta’rifga ko’ra, “uchinchi muallim” I. Gaspirali jadid ma’rifatparvarlaridan biri Mahmudxo’ja Behbudiy so’zlari bilan aytganda, “Rusiyadagi butun turk – tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr -xo’shlik bilan bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo’ldi”. Kitobda yozilganidek, I.Gaspirali “sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, mакtab – maorifida chinakam inqilob yasagan, “usuli savtiya”ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiy parvar harakatchiligiga – jadidchilikka asos soldi”. Uning mavqe ye musulmon olamida juda baland edi. Ismoil Gaspiralining 1893- yil Turkistonga kelishi, Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida bo’lishi va dastlabki jadid maktablarining 1898-yil Qo’qonda Salohiddin domla, 1899-yilda Toshkentda Mannon Qori va shu yili Andijonda Shamsiddin domlalar tamonidan tashkil etilishini oladigan bo’lsak, Turkistonda jadidchilik harakatining XIX asr oxirida boshlangan deyishimiz mumkin bo’ladi. Jadidchilik harakati ijtimoiy – siyosiy harakat sifatida XX asr boshlarida jiddiy tus oldi. Shuningdek, jadidchilik harakatining kirib kelishi bilan bog’liq quyidagi dalillar harakatning XX asr boshlaridan boshlanganligi haqidagi fikrni oydinlashtirishga xizmat qiladi: Turkiston jadidchilik harakatining nomayondalaridan biri Abdulla Avloniy o’zining tarjimai holida 1900-yilda uylangani va oila boshlig’i bo’lib qolganligini eslab, oilani boqmoq uchun butun qish kunlarida ishlamoqqa to’g’ri kelgani, madrasani tashlab ketishga majbur bo’lganligi, ammo maorif ishlarini davom ettirganini yozib, turli gazetalar



mutolasi bilan tutinganligini bildiradi. "Tarjumon" gazetasini o'qub, zamondan xabardor bo'ldim. Shul zamonda yerli xalqlar orasida eskilik – yangilik janjali boshlandi. Gazeta o'quvchilarni mullalar "jadidchi" nomi bilan atar edilar", - deydi.[3]

Dastlabki jadid maktablarining chor hukumati tamonidan yopilishi va ma'lum muddat bu maktablar faoliyatiga chek qo'yilmaganligini hisobga olsak, jadidchilik harakatining jiddiy tus olishi XX asr boshidan boshlangan deyishga asos bo'ladi. Bundan tashqari xorijiy gazetalarning Turkistonga kirib kelishi va Turkistonda ilk bor gazeta nashri ham XX asr boshiga to'g'ri keladi.

Hamza o'zining tarjimai holida "Ko'p uzoq emas, 1908-yillarda ham madrasada o'qub yurgan vaqtimizda gazet – jurnallarni birovlar nomiga yozdurub olub, qo'ltig'imizga yashurub, shul madrasaning qozon qo'yadigan qorong'u hujralarinda eshikni ichidan beklab, o'shanda ham qo'rpub – qo'rpub o'qur edik", - deb yozadi.[4]

Demak, bundan ko'rinish turibdiki, Turkistonda jadidlar harakati dastlab XIX asr oxiridan boshlangan bo'lsa ham, aslida XX asr boshlaridan jiddiy tus olgan.

Jadidchilik harakatining paydo bo'lishi bilan bog'liq omillar sifatida quyidagi omillarni keltirishimiz mumkin:

Chor Rossiyasining Turkistonda mustamlakachilik zulmining kuchayishi;
Mustamlakachilar tamonidan o'lka moddiy va ma'naviy boyliklarining talon – taroj qilinishi;

Jamiyatda o'rta asrga xos qoloqlikning tabora ildiz otib borishi;
Mamlakatda chor Rossiyasining olib borilgan siyosatiga qarshi noroziliklarning kuchayishi;

Eron, Turkiya, Misr va Rossiya singari davlatlardagi inqilobi o'zgarishlarning ta'siri;

Mahalliy xalq vakillarining chet ellarda bo'lishi va ularda o'lkada ijtimoiy – siyosiy, madaniy islo hatchilik g'oyalarining yuzaga kelishi;

Taraqqiy etgan davlatlar darajasiga intilish;

Muqumiylar bosholab bergen o'zbek ma'rifatparvarlik qarashlar.

N. Karimov jadidchilikning vujudga kelishi haqidagi fikrga yakun yasar ekan, buni shunday izohlaydi: "jadidchilik XIXasr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda hukm surganfovqulodda qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohatlar o'tkazish, pirovardida, milliy mustaqillik g'oyalarini hayotga tatbiq etish



masalasini o'z oldiga qo'ygan harakat sifatida, tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi".

"XX asr , avvalo, ko'pchilik xalq ommasini savodxon qilish va ayni paytda yangilanayotgan zamonning munosib farzandlarini tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo'ydi. Boshqacha aytganda XX asr Marif, Tenglik, Ozodlik degan va xuddi shu davrda aniq mazmun – mundarijaga ega bo'lgan yuksak tushunchalar ular faoliyatining asosiy mohiyatini egalladi. Ularning jasorati bilan Turkistonda Rossiya tobelligida yashovchi mahalliy xalqning tutqun, turg'un hayotida ham qo'zg'olish boshlandi. Jumladan, Turkistonda qisqa muddatda o'zbek ma'rifatparvarlarining butun bir avlod yetishib chiqdi. Faoliyati o'tgan asrning so'nggi davridan boshlanib, inqilobdan keyingi 20-yillargacha davom etgan bu avlod xalqimizning umumiy ma'rifatidagina emas, ijtimoiy – siyosiy ma'rifatida ham, ya'ni uni inqilobga, so'ng esa yangi turmushga tayyorlashda ham juda buyuk xizmat ko'rsatdi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Saidrasul Aziziy, Ishoqxon Ibrat, Siddiqiy Azjiy, Muhammadsharif So'fizoda, Abdulqodir Shokuriy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda va boshqa ma'rifatparvarlar shular jumlasidandir."² Darhaqiqat ular tom ma'nodagi jadidlar edi. Ularning faoliyatini tadqiq etar ekanmiz, ular ilgari surgan g'oyalar va fidoyi faoliyatiga baho berib, ularni haqiqiy jadidlardir deymiz. Bunday jadidlar esa aynan XX asr boshlarida maydonga chiqdilar. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining ilk kurtaklari XIX asr oxirlarida paydo bo'lgan bo'lisa-da, ushbu harakat XX asr boshlarida jiddiy tus olgan.

Jadidlar harakatining asosini ma'rifatparvarlik g'oyalari egallagan, yani obrazli qilib aytganda ma'rifatparvarlik g'oyasi jadidlar faoliyatining o'q tomirini tashkil etadi. Shu g'oya, agar uni mafkura deb atasak, shu mafkura ularning butun faoliyatini boshqardi, mamlakat taraqqiyoti va kelajagi bilan bog'liq boshqa g'oyalarning dunyoga kelishida xizmat qildi. Ammo bu ularni sovetlar iborasi bilan aytganda, faqat ma'rifatparvarlar edi, degan xulosaga olib kelmasligi kerakki, biz o'z navbat bilan jadidlarning faoliyatini tadqiq etib borishda ularning ma'rifatparvarlik g'oyalardan tashqari mamlakat hayotida hal etuvchi g'oyalarning ham muallifi bo'lganligini isbotlashga harakat qilamiz, albatta.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: Jadidlar nima uchun aynan ma'rifatparvarlik g'oyasini ilgari surdilar? Nega o'z faoliyati davomida aynan ma'rifatparvarlik faoliyati bilan shug'ullandi?

XIX asr oxiri XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bu davrda jamiyatning ma'naviy inqirozi chuqurlashgan bo'lib, milliy



PEDAGOGICAL CLUSTER

JOURNAL OF PEDAGOGICAL DEVELOPMENTS



Website: <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/index>

madaniyatni ko'tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lmay ma'rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'yan ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo'lmas edi. Jadidlar, yani ma'rifatchilar millatning ma'naviy kamolati yo'lida o'zining butun kuchi va iste'dodini safarbar etishga tayyor bo'lgan fidoyilar edi.[7]

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qattiq riosa qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlar berish asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surdilar va bu borada o'zları amaliy harakat namunasini ko'rsatdilar.

Jadidlar harakatining eng muhim g'oyaviy jihatlari shundaki, birinchidan, ular ozodlikka, mustaqillikka qon to'kishga olib keluvchi turli to'palon, qirg'in – borot urushlar bilan emas, balki aholini savodini chiqarish, ularning ma'rifatini ko'tarish orqali qaramlikning kelib chiqishi, uning millit taqdiridagi oqibatlarini tushunib yetish darajasiga ko'tarish orqali erishishni;

Ikkinchidan, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini, milliy birlikning vujudga kelishi esa uni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omili ekanligi g'oyasida;

Uchinchidan, jadidchilik harakati namoyondalari faqat o'z g'oyalarini ilgari surish, uni tashviqot etish doirasida cheklanib qolmasdan, ular aholining umumiyl savodxonligin ko'tarish borasida ko'pgina ishlarni ham amalga oshirganlar. Ular o'zlarining mablag'lari hisobiga maktab ochdilar, gazeta, kitoblarni bosmadan chiqardilar. Bu harakatlarning zaminida chinakkam jasorat turadi. Chunki ular urushlarga, johillikka va qarama – qarshiliklarni avj oldirishga emas, balki yuksak ma'rifatga va siyosiy onglilikka erishish orqali ozodlik va taraqqiyotga erishish mumkinligi uchun faoliyat ko'rsatganlar. Jadidlar bu faoliyatları bilan o'zlarining Turkiston jamiyatida mamlakatni buyuk kelajak sari yetaklovchi g'oyaviy rahbarga aylangandilar. G'oyaviy rahbarlik qilish esa har kimning qo'lidan kelavermaydi. G'oyaviy rahbarlik insondan yuksak tafakkur, chuqur bilim, uzoqni ko'ra bilish va kelajakka, o'z g'oyalariga ishonch hamda sobit e'tiqod egasi bo'lislilikni talab etadi. Jadidalar ana shunday kishilar edi. Ular o'zlaridagi ana shunday jihatlari bilan milliy tariximiz zarvaraqlarida o'zlarining munosib o'rinalarini topgan shaxslardir. Jadidlar o'z davrining eng ilg'or g'oyalarini ilgari surish bilan birga aholini umummanfaatini ko'tara olgan, mamlakatda ommoviy harakatni yuzaga keltirgan va eng muhimi millitni birlashtira olish imkoniyatini yuzaga keltirganlar.



References:

1. Jadidchilik: islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - Toshkent: "Universitet", 1999.
2. Zioev H. O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. Toshkent: "Sharq", 2006.
3. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: "Sharq", 2003.
4. Azamxo'jaev S. Turkiston Muxtoriyati. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2000.
5. Qosimov B. Milliy tiklanish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - Toshkent: "Ma'naviyat ". 2002.
6. Jadidchilik: islohat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. - Toshkent: "Universitet", 1999.
7. Sirojiddinovna, H. D. (2024). The improvement of language skills (speaking, listening, reading, and writing) for self-directed learners. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 231-236.
8. Hamroyevich, A. T. L. (2024, March). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATI HAQIDA. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 8, pp. 63-68).
9. Asadov, T. H. (2023). NATURAL CHARACTERISTICS OF EXPRESSING SIGN AFFIXES-cha/larcha/chasiga,-an,-ona. Innovative Development in Educational Activities, 2(23), 223-229.
10. Gaspirali . "Hayot va momot masalasi". - Toshkent: "Ma'naviyat", 2006.
11. Xaytmirzayevna, M. D., & Jasurbek, E. (2022). Acmelological approach to preparation of future teachers. Web of scientist: International Scientific Research Journal, 3(4).
12. E. Nematov. O'zbek ma'rifatparvarlari yaratgan darsliklar va ularning didaktik asoslari. - Toshkent: "Fan" 2007.
13. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. Toshkent: "O'zbekiston", 2006.